



KOREYS-O‘ZBEK ADABIY ALOQALARINING YANGI BOSQICHI

Kadirov Timur Raxmatilloevich

(O‘zbekiston davlat jahon chet tillar universiteti mustaqil izlanuvchisi)

Телефон: +998933436152

rameo_113@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Koreys-o‘zbek adabiy aloqalarining yangi bosqichi va hamkorlikning istiqbollari yoritilgan bo‘lib, har ikki mamlakatning she‘riy tarjimalari batafsil yoritilishi orqali, tarjimada ikki madaniyat naqadar bir-birini tushunishiga va qadrlashiga ko‘proq urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston va Koreya diplomatik aloqalari, adabiy aloqalar, tarixiy va madaniy kontekst, she‘riyat, koreys tili va adabiyoti markazi.

KIRISH.

Har ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik so‘nggi yillarda yangi sifat bosqichiga ko‘tarilmoqda. Bunda O‘zbekiston va Koreya Respublikalari davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoev va Yun Sok Yol tomonidan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy- gumanitar hamkorlik borasida ilgari surilayotgan qator tashabbuslarning ahamiyati ulkandir.

Buning yaqqol dalili sifatida O‘zbekistonda muntazam ravishda Koreya Respublikasining madaniyat kunlari o‘tkaziladi. Mamlakatimiz aholisi koreys filmlari, kuy va qo‘shiqlari, kitoblari bilan tanishadilar. 2017 yilda O‘zbekistonda koreys millatiga mansub fuqarolarning istiqomat qilayotganligining 80 yilligi keng ko‘lamda nishonlandi. O‘zbekistonda koreys tili, madaniyati, adabiyoti, tarixiga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga o‘sib borayotganini ham aynan shu bilan izohlash mumkin. [Мирзиёев Ш.М. Ҳаракатлар стратегияси. – Ташкент. 2017.- С-3]

Adabiy aloqalar badiiy tarjima, adabiy ta‘sir, jonli muloqotlar, ijodiy hamkorlik, do‘stona munosabatlar, ustoz-shogird an‘analari o‘zanida shakllangan, - millatning ma‘naviy-madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega jarayondir. O‘tgan yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida mamlakatimiz ijod ahlining Koreya Respublikasi yozuvchi va shoirlari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. [2025 한국-우즈베키스탄 작가대회, 70-76].

Koreyalik ijodkorlar poytaxtimizdagi adiblar xiyoboniga tashrif buyurib, Alisher Navoiy haykali poyiga gullar qo‘ydi. Tashrif avvalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bunyod etilgan adiblar xiyoboni, milliy adabiyotimiz darg‘alarining haykallari, ustoz adiblarning hayoti va faoliyati xususida chet ellik mehmonlarga batafsil ma‘lumot berildi. Yozuvchilar uyushmasi binosida kitoblar hamda taniqli fotoijodkor Ahmadjon Ergashev suratlaridan iborat ko‘rgazma tashkil etildi. Ijodiy muloqot davomida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid va boshqalar yangilanayotgan O‘zbekistonda adabiyot, ilm-fan, ma‘naviyat va ma‘rifat rivojiga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani, turli millat va elat vakillarining erkin, samarali ijod qilishi uchun barcha sharoitlar yaratilganini ta‘kidlandi. Bunday ijodiy uchrashuvlar adabiy aloqalarni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi, – dedi Sirojiddin Sayyid.

Prezidentimizning “Adabiyot – xalqning yuragi” degan so‘zlarini bugun ijod ahli o‘z faoliyatimiz uchun shior qilib olganmiz. Aytish kerakki, uyushma a‘zolari turli millat vakillaridan iborat bo‘lib, ular orasida koreys millati vakillari ham borligi e‘tiborga molikdir. Bularning bari koryes xalqi bilan adabiy aloqalarimiz tobora kengayib, mustahkamlanib borayotganini yana bir bor ko‘rsatmoqda. Tashrif davomida koreyalik yozuvchi va jurnalist Cho Chyol Xyon. – Bu kitoblar va adabiy aloqalar O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, uning tashabbusi asosida mamlakatingizda kechayotgan yangilanish jarayonlari, bu zaminda istiqomat qilayotgan koreys diasporasi, mamlakatning o‘ziga xos milliy qiyofasi, taraqqiyot odimlariga bag‘ishlanadi deya ta‘kidladi.



Bunday adabiy aloqalar yozuvchi va shoirlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning tobora kengayishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiy anjumanda xorijiy mehmonlar tomonidan e'tirof etilganidek, 1937-yilda O'zbekistonga ko'chirib kelingan koreyslar tabarruk zaminimizda boshpana, rizq-nasiba, ikkinchi Vatanga ega bo'ldilar. Eng og'ir va sinovli yillarda o'zbek xalqi ular bilan so'nggi burda nonini baham ko'rdi, eng asosiysi mehr va yaxshilik ko'rsatdi. Bugun mamlakatimizda ijod qilayotgan ziyolilar safida koreys millatiga mansub ijodkorlar ham bisyorligi ta'kidlandi. O'zbek xalqi bilan farqli jihatlaridan ko'ra, o'xshash tomonlarimiz juda ko'p, – dedi o'zbekistonlik yozuvchi va jurnalist Vladimir Kim [2025 한국-우즈베키스탄 작가대회, 76-78]. Bu o'xshashlik kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, an'ana va qadriyatlarga sodiqlikda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zaro adabiy aloqalarining yaqqol misoli sifatida:

1. Ko Un – “Ten Thousand Lives” (Wamman saeng), o'zbekchaga tarjimalar

Ko Un Koreyaning eng mashhur shoirlaridan biri. Uning ba'zi she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

She'ridan parcha (tarjimadan):

“Odamlar ketadi, shamollar qoladi,

Shamollar ketadi, xotiralargina turadi.

Har bir qadam ostida yana bir hayot.” [Korea National Research Foundation <https://www.kri.go.kr/kri2>].

2. Yun Dong-ju – “Osmon, shamol, yulduzlar va she'r” (tarjimalar)

Yun Dong-ju Koreyada milliy o'zlik va sof lirikaning timsoli. Uning she'rlari Toshkentda chop etilgan “Koreys zamonaviy she'riyati antologiyasi”da o'zbekcha chiqdi.

“Osmon, shamol, yulduzlar va men” she'ridan parcha (o'zbekcha):

“Toza osmon ostida men

Ichimda o'sayotgan g'amni kuzataman.

Yulduzlar jim, yulduzlar sokin —

Birgina shamol o'tadi yonimdan.” [Korea National Research Foundation <https://www.kri.go.kr/kri2>].

3. O'zbek shoirlari tomonidan koreys she'riyatidan tarjimalar

O'zbek tarjimonlari, xususan:

- Asqar Mahkam
- Jamol Kamol
- Xurshid Davron

koreys klassik va zamonaviy she'riyati namunalarini tarjima qilgan.

Koreys xalq qo'shig'idan o'zbekcha tarjima (minyo):

“Go'zalim, tog'lar ortida,
Bahor yo'llarida seni kutaman.
Chigirtkalarining sayrovida
Yuragim sensiz uyqusiz qoladi”. [Korea

National Research Foundation
<https://www.kri.go.kr/kri2>]

“아름다운 너여, 산 너머에서,
봄길에서 너를 기다릴게.
메뚜기들의 노래 속에서
내 마음은 너 없이는 잠을 이루지 못해.”
[Korea National Research Foundation
<https://www.kri.go.kr/kri2>]

4. O'zbek shoirlarining she'rlari koreys tiliga tarjima qilingan



Koreyada quyidagi o‘zbek shoirlarining she’rlari tarjima qilinib, antologiyalarda chop etilgan:

Tarjima qilingan shoirlar:

- Erkin Vohidov
- Abdulla Oripov
- Muhammad Yusuf

Abdulla Oripovning “Vatan” she’ridan koreyschaga tarjima namunasi (o‘zbekcha qayta):

“Vatan deb yurak tepadi,

Boshimda yelkaday g‘urur.

Uzoqlarda ham meni yetaklar

Bolaligimning beg‘ubor yo‘llari.” [Korea National Research Foundation <https://www.kri.go.kr/kri2>]

Adabiy muloqot davomida o‘zbek va koreys shoirlarining ijodidan namunalar ikki xalqning ona tillarida yangradi. O‘zbekistonlik san’atkorlar ijrosida ikki xalqning qo‘shiqlari aytilgani tadbir ishtirokchilariga yanada ko‘proq zavq, hayrat bag‘ishladi.

E’tiborga molik jihati, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida koreyalik jurnalist va yozuvchilar, shoirlar bilan uchrashuvlar doimiy o‘tkaziladi. Koreya Respublikasining Kvanju shahrida o‘tkazilgan yozuvchilarning IX xalqaro kongressida o‘zbekistonlik adiblar ishtirok etdi. Koreya Respublikasidagi Markaziy Osiyo markazi tomonidan o‘zbek yozuvchisi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Muhabbat Yo‘ldoshevaning “Mening bulut do‘stlarim” kitobi bir yo‘la o‘zbek, koreys, ingliz, rus tillarida chop etildi.

Bugungi kunda kareys va o‘zbek adabiy aloqalari jahon adabiyoti jarayonining ajralmas qismi sifatida tasavvur etamiz. Buning uchun esa kareys-o‘zbek adabiy aloqalarini yangi va yuksak bosqichga ko‘tarish lozimligini ko‘rsatadi. Hozirgi o‘zbek adabiyotining ko‘rki bo‘lgan asarlarni koreys tiliga, kareys xalqi adabiyotining mumtoz namunalarini esa o‘zbek tiliga tarjima qilish, bir tomondan, milliy adabiyotimizga yangi adabiy havoning kirib kelishiga, yangi badiiy-uslubiy izlanishlarning g‘uncha ochishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan, xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi, binobarin, notinch dunyoda tinchlik-totuvlik, mehr va muhabbat urug‘ni sepishiga sharoit yaratadi.

Xulosalar

2. Tarjima adabiyoti

• Koreys adabiyoti O‘zbekistonda ko‘proq tarjima qilingan. Masalan, koreys yozuvchilari Kim So-wol, Han Kang, Shin Kyong Suk va boshqa zamonaviy mualliflarning asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

• Shu bilan birga, o‘zbek adabiyoti Koreyada tarjima qilinadi, xususan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, O‘tkir Hoshimov, Chingiz Aytmatov asarlari koreys tiliga tarjima qilinib, o‘qiydigan auditoriya kengaydi.

• Tarjima jarayoni orqali ikki madaniyat bir-birini tushunish va qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

3. Zamonaviy adabiy aloqalar

• Kitob yarmarkalari va madaniy tadbirlar: Toshkent va Seul shaharlarida kitob yarmarkalari va madaniy festivallar doirasida ikki mamlakat yozuvchilari va tarjimonlari uchrashadi.

• Talabalar va olimlar almashuvi: O‘zbekistonlik va koreys talabalari adabiyot fakultetlarida bir-birining klassik va zamonaviy adabiyotini o‘rganadilar.

• Madaniyatlararo loyihalar: Masalan, “Koreys tili va adabiyoti markazi” Toshkentda ochilgan va koreys tilidagi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishni rag‘batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Харакатлар стратегияси. – Ташкент. 2017.- С-3.
2. 2025 한국-우즈베키스탄 작가대회, 76-78.
3. Korea National Research Foundation <https://www.kri.go.kr/kri2>.